

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV XO'JALIK
VAZIRLIGI
SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI**

**Qo'lyozma huquqida
O'DK:633.51: 631.545**

XOLMURZAEV BOBURning

**Mavzu: Organik va mineral chiqindilardan tayyorlangan
kompostlarning tuproq unumdorligi va g'o'za hosildorligiga
ta'siri. (Pastdarg'om, tumani misolida).**

**4100202 – Paxtachilik mutaxassisligi bo'yicha
Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan**

D I S S Y E R T A S I Y A

**Ilmiy rahbar: qishloq xo'jalik
fanlari nomzodi, dosent Sh.A.Berdiqulov**

Samarqand – 2013 y.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI
SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI

Fakultet: Agronomiya
Kafedra: «Dehqonchilik va
meliorasiya asoslari»
O'quv yili: 2012 - 2013

Magistratura talabasi: B.M.Xolmirzayev
Ilmiy rahbar: professor Sh.T.Xoliqulov
Mutaxassisligi: Paxtachilik

MAGISTRLIK DISSERTASIYASI ANNOTASIYASI

Turli xil organik va mineral chiqindilardan kompost tayyorlash orqali ushbu chiqindilarni atrof muhit ekologiyasiga ko'rsatadigan zararli ta'sirini kamaytirish, bugungi kun dehqonchiligining eng asosiy muammolaridan biri bo'lgan organik o'g'itlar yetishmaslik muammosini, hamda tuproqlarning gumus balansini maqbullashtirish, tuproqning chirindi miqdorini oshirish provardida qishloq xo'jalik ekinlari, jumladan g'o'za o'simligining butun vegetasiya davrida zarur bo'lgan harakatchan oziq moddalari bilan yetarli darajada ta'minlanishi uchun maqbul sharoit yaratiladi. Shuning uchun o'rganilgan mavzu dolzarb hisoblanadi

Chiqindilarni kompostlash orqali yaratilgan organik o'g'it, ya'ni kompost tuproqning agrokimyoviy, agrofizikaviy hamda mikrobiologik xossalariga, tuproqning suv, havo hamda issiqlik xossalariga ijobiy ta'sir ko'rsatish bilan birga g'o'zaning S-6541 navining o'sishiga, rivojlanishigava hosildorligiga ta'sirini o'rganish ishning maqsadi hisoblanadi. , shunga asosan g'o'zaning o'sish, rivojlanish, hosildorligi variantlar bo'yicha hisoblanib, hosilning sifat ko'rsatkichlariga ta'siri aniqlangan, o'tkazilgan tadqiqotning iqtisodiy samaradorligi hisoblangan.

Tadqiqot obe'kti qilib g'o'zaning istiqbolli S-6541 navi olingan, tajribalar Samarqnd viloyati Pastdarg'om tumanining tipik-bo'z tuproqlar sharoitida olib borildi.

Tadqiqot O'zPITI ning «Dala tajribalarining o'tkazish uslublari» (2007) asosida bajarilgan.

Ishning ilmiy yangiligi shundaki, Birinchi marta tovuq go'ngi, il (sapropel) va fosfogipsdan kompost tayyorlash texnologiyasi yaratildi va ushbu kompost o'zining kelib chiqishi va tarkibiy qismi jihatdan boshqalariga uxshamaydigan yangi kompost bo'ldi. Ushbu kompostlarni g'o'za o'stirishda qo'llash va olingan tajriba natijalaritahlil qilish ilk bor bajarildi va olingan natijalar ishning ilmiy yangiligidir.

Tadqiqotning amaliy ahamiti shundaki ushbu chiqindilardan kompost tayyorlash texnologiyasi yaratilib, ularning tuproqqa qo'llashning eng maqbul me'yorlari ishlab chiqildi ushbu kompostlarni tuproqqa qo'llash orqali olingan tajriba natijalar ko'rsatishicha gektaridan 30,17 sentner qo'shimcha hosil olinib, sohaning rentabellik darajasi ham shunga mos holda gacha ko'tarildi, hamda hosil sifati yaxshilanishiga erishildi.

Olingan ma'lumotlar asosida 8 ta punktdan iborat xulosa qilindi va ishlab chiqarishga tavsiya berildi. Qo'lyozma 123 betdan, 3 bobdan, 21 ta jadvallardan iborat bo'lib, keltirilgan.

Mavzuga taalluuqli 98 ta adabiyot tahlil qilingan. Qo'lyozma ma'lumotlari asosida - 3 ta maqola chop etilgan.

Ilmiy rahbar q.x.f.nomzodi, dosent.
Magistratura talabasi:

Sh.A.Berdiqulov
B.M.Xolmirzayev

Faculty: Agronomy
Chair: Foundations of agriculture and
melioration
Education year: 2012-2013

Student of magistracy:
B.M.Kholmirezayev
Specialty: Cotton-growing

Summary of the thesis of the master

Preparing the compost from different organic and mineral waste materials is useful to diminish harmful effect on environment. Nowadays agriculture's main problem is defect of organic fertilize and balancing humus of soil. With rising the rate of rotten soil to make good conditions for sufficient degrees of agricultural plants essential in field of cotton-plant is necessary to improve all vegetation time with mobile food matters. That is why this theme is culmination.

Composting of waste materials it has made a new organic fertilize as compost, it has a positive influence on the agrochemical, the agrophysical and microbiological character of soil and has positive value influences property of water, air and warmth of the earth.

The aim of the work is to learn the effect of fertility and developing to grow of cotton-plant's kind as S-6541.

Investigation's economical effective is principally, count about variants grooving, improving, fertility and quality of fertile.

The object of investigation was given kind of cotton-plant S-6541. Experiments conducted in Samarkand, Pashargom region's typical virgin land.

This investigation has done on base UzCSRT's "Method of field experience" (2007).

The novelty of the work is the first time it made compost by using a new technology from hen's dung, il (sapropil) and phosphite. This compost became new unique creation and to the components. Utilization of new compost on growing cotton-plant and analyze result of experiment have done first time and given experiment's result was novelty of the work.

The practical significance is creating the technology of compost from rubbish, work come up measures to use in soil.

We took some result through experiment such as obtain improving the quality of harvest, field rentable degree rise to we may take additional harvest from hectare 30.17centner.

On base of taken information have done conclusion contain of point and recommend for developing.

Manuscript consist of 8 page, 123 head, 3 table and given 21 Pictures and schedules. Have analyzed concerning to theme about 98 Literatures. On base of information 3 articles was printed.

Research supervisor:
Student of a magistracy:

Sh. A. Berdikulov
B. M. Kholmirezayev

M U N D A R I J A

KIRISH	4
I. KOMPOST KOMPONENTLARI VA UNI TAYYORLASH TEKNOLOGIYASI	
Adabiyotlar sharhi	6
II. TADQIQOT SHAROITI, OBYEKTI VA USLUBLARI	
2.1 Ilmiy tadqiqodning maqsadi va vazifalari.	18
2.2 Tadqiqot o'tkazish sharoiti va uslublari	18
III. TADQIQOT NATIJALARI.	
TOVUQ GO'NGI, IL VA FOSFOGIPSNING KIMYOVIY TARKIBI VA ULARDAN TAYYORLANGAN KOMPOST KIMYOVIY TARKIBI	
3.1 Oxalik tovuq go'ngi, Xishrov kuli ili va Samarqand kimyo kombinati chiqindisi fosfogipsning kimyoviy va agrokimyoviy tarkibi	27
3.2 Tovuq go'ngi, il va fosfogipsdan tayyorlangan kompostning kimyoviy va agrokimyoviy tarkibi.	35
3.3 Kompostlarning tuproq oziq rejimiga ta'siri.....	41
3.4. Kompostlarning g'o'za o'sishi va rivojlanishiga ta'siri.....	53
3.5. Kompostlarning g'o'zani vertisilloyz vilt bilan kasallanishiga ta'siri.....	62
3.6. Kompostlarning g'o'za hosildorligiga ta'siri.....	65
3.7. Kompostlarning g'o'za yetishtirishdagi iqtisodiy samaradorligiga ta'siri.....	68
XULOSA	72
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	74
ILOVALAR	82

Kirish

G'oz Respublikamizda eng asosiy strategik ekinlardan biri bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun uning hosildorligini oshirish eng provard maqsadlardan biri qilib belgilanishi zarur. Buning uchun eng avvalo tuproq unumdorligini oshirishga asosiy e'tiborni qaratishimiz zarurdir. Bugungi kunda mintaqamiz tuproqlarini gumus zahirasi bir muncha pasayib ketgan. Tuproq unumdorligini belgilovchi asosiy modda gumus hisoblanadi. Gumus miqdori va sifati qancha yuqori bo'lsa unumdorlik ham baland bo'ladi. Lekin, ko'pchilik olimlarning fikriga ko'ra, oxirgi 30-50 yil ichida tuproqda gumus miqdori sezilarli kamayib bomoqda. Bu jarayonning asosiy sabablaridan biri qishloq xo'jaligida organik o'g'itlarning yetishmasligi hisoblanadi. Chunki asosiy organik o'g'it bo'lgan go'ng zahirasi hozirgi paytda juda kam miqdorni tashkil etadi. Olimlarning fikriga ko'ra, tuproqning defitsitsiz gumus balansi uchun go'ng kamida 17-18 t/ga me'yorida qo'llanishi kerak. Lekin hozirgi vaqtda chorvachilik dehqonchilikni bunday miqdordagi go'ng bilan ta'minlay olmaydi. Shuning uchun go'ngga alternativ bo'lgan organik o'g'itlarni topish va o'rganish dolzarb masala hisoblandi. Ana shunday alternativ organik o'g'it- har xil chiqindilardan tayyorlangan kompost bo'lishi mumkin. Hozirgi paytda qoramolchilikka qaraganda parrandachilikni rivojlanishi, yirik parrandachilik komplekslarini tiklanishi va yangilarini qurilishi parranda axlatini atrof muhit uchun xavfsiz saqlash, ularni utilizasiya qilish muammolarini tug'diradi. Shu bilan birga O'zbekistonda 50 dan ziyod suv omborlari bo'lib, ularda ko'p yillardan beri katta miqdordagi loyqalar, ya'ni sapropel to'planib qolmoqda. Har yili ularni to'planib borishi natijasida suv ombori sayozlashib ulardagi suv hajmi kamayib bormoqda. Shuning uchun suv omborlarini loyqadan tozalab turish loyihadagi suv omborini quvatini, suv to'plash hajmini saqlab turishga imkon beradi. Sapropel tuproqning mayda zarrachasi bo'lib, tarkibida turli hil moddalar nisbatan yuqori miqdorda mavjud. Shu jumladan organik moddalar va kaliy elementi yuqori ulushga ega. Bundan tashqari sapropel tuproqning agrofizik, fizik-kimyoviy, agrokimyoviy va

mikrobiologik xossalarga, suv, issiqlik, havo, oziq rejimlariga ijobiy ta'sir qilishi mumkin. Lekin bu masalalar respublikamiz sharoitida o'rganilmagan.

Kimyo kombinantlarining chiqindisi bo'lgan fosfogips ham qimmatbaho chiqindi hisoblanadi. Uning tarkibida 1,8-2,0% gacha fosfor oziq moddasi mavjud. Shuning uchun ushbu chiqindi kompostning sifatini oshiradi. Fosfogipsning tarkibidagi gips ham Samarqand viloyatida keng tarqalgan magniy karbonatli sho'rlangan o'tloq tuproqlarda yuqori samara berishi mumkin. Chunki magniy karbonatli sho'rlangan o'tloq tuproqlar singdirish kompleksida kal'siy kationiga nisbatan magniy ko'p bo'ladi va bu magniy karbonatli sho'rlanishni keltirib chiqaradi. Gips qo'llash natijasida tuproqda, jumladan tuproq singdirish kompleksida kalsiy kationining ulushi ko'payib boradi va bu magniy karbonatli sho'rlanish darajasini pasaytiradi. Bu esa magniy karbonatli sho'rlangan tuproqlarning meliorativ holatini yaxshilaydi.

Demak, tovuq go'ngi suv omborlari sapropeli va fosfogipsning afzal tomonlari mavjud. Ulardan birgalikda kompost tayyorlaganda bir-birini to'ldiradi, oziq moddalarni o'simlik o'zlashtira oladigan holatga o'tishini ta'minlaydi. Chunki fosfogipsdagi fosfor o'simliklar qiyin o'zlashtiradigan shaklda bo'lib, kompostlash natijasida o'simliklar o'zlashtirishi uchun yaroqli holga keladi. Shu bilan birgalikda fosfogips tovuq go'ngi chirishi davomida yo'qalayotgan azotni o'ziga singdirib ushlab qoladi. Sapropel tarkibida oziq moddalar, ayniqsa kaliy ko'p bo'lib, kompostni oziqabopligini oshiradi. Bu albatta kaliyli o'g'itlar tanqis bo'lgan bir paytda katta ahamiyatga ega. Shu bilan birgalikda sapropel parranda axlatini chirishini tezlashtiradi, biomassani mikroorganizmlarga boyitadi. Shu jihatdan bu chiqindilardan kompost tayyorlash juda aktivdir.

Lekin ushbu chiqindilarning kompostbopligi, ularning kompost tayyorlashdagi nisbati qanday bo'lish kerakligi, tayyor kompostlarning tuproq unumdorligi va ekinlar hosildorligiga ta'siri deyarli o'rganilmagan. Vaholanki, bu chiqindilar ancha miqdorda to'planib qolgan va o'z yechimini kutmoqda. Bu borada O'zbekistonda kam darajada bo'lsada ishlar qilingan (T.S.Zokirov, A.T.Ergashev va boshqalar, 1985; R.Tursunqulova, 1987; J.Sattarov,

Sh.T.Xoliqulov, 1992; I.Irnazarov, 2004; F.X.Xoshimov, T.K.Ortiqov, Sh.A.Hazratqulov, 2006 va boshqalar). Samarqand qishloq xo'jalik instituti bu borada chiqindilardan kompost tayyorlash texnologiyalarini o'rganish tajribasi va ko'nikmasiga ega.

I. KOMPOST KOMPONENTLARI VA UNI TAYYORLASH TEKNOLOGIYASI (Adabiyotlar sharhi)

Organik o'g'itlar me'yori 20 t/ga dan 40 t/ga miqdorgacha oshirilganda ularning azot miqdoriga ijobiy ta'siri yanada ortdi. Yarim chirigan qoramol go'ngiga nisbatan turli xil chiqindilardan tayyorlangan kompostlar ammoniy va nitrat shaklidagi azotga kuchliroq ta'sir ko'rsatdi. Bu kompost tarkibida nisbatan azot miqdorining yuqoriligi fonda fosfogips mavjudligi bilan tushuntiriladi. Chunki fosfogips magniy karbonatli shurlangan o'tloq tuproqlarning tuproq singdirish kompleksini kalsiy kationi bilan boyitib ularning meliorativ holatini yaxshilaydi bu esa o'z navbatida tuproqning tabiiy agrokimyoviy xossalari sezilarli yaxshilaydi. NPK+20 20 t/ga go'ng va shuncha miqdorda kompost berilgan variantlarda ammoniy shakldagi azot miqdori 1-mart sanasida 31,8 va 34,4 mg/kg bo'lishit aniqlandi (F.Hoshimov, T.Ortiqov, N.Boboyeva 2011).

Organik o'g'itlar miqdorini gektariga 20 t/ga dan 40 t/ga miqdorda oshirib borish tuproqning gumus miqdorini va tuproqdagi harakatchan oziq elementlar miqdorini ham sezilarli darajada ortishiga olib keldi. Bunda ayniqsa chiqindilardan tayyorlangan kompostlar tarkibida fosfogips moddasining bo'lishi tuproqning fosfor rejimiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatdi. Bundan tashqari organik o'g'itlarni miqdorini oshirib borish tuproqning mikrobiologik holatini ham yaxshilab alyumoselikatlarni parchalab hamda shu hisobiga tuproq tarkibidagi almashinuvchan kaliy miqdorini ham ortishiga olib keldi. Organik o'g'itlarni 4 yil davomida uzluksiz qo'llash magniy karbonatli shurlangan o'tloq tuproqlarda gumus miqdorini sezilarli ortishiga olib keldi. Tuproqni organik o'g'itlar bilan boyitish ham tuproqning gumus miqdorini ortishiga olib keladi. (F.Hoshimov, T.Ortiqov, N.Boboyeva 2011).

Gektariga 18 t/ga qoramol go'ngi solingan variant o'simliklarida g'o'za shakllanish fazasidan boshlab, kuzgi shudgorga yillik fosfor va kaliyning 10 foizi solingan variantda gullash boshlanganda shonalarning paydo bo'lishi, shudgor

oldidan 28 t/ga go'ng solingan variantda may oyining oxirgi 3-5 kunida ya'ni 8-10 kunga tezlashishi aniqlandi. Demak biologik massa hisoblangan go'ng o'simliklar ildizi, biologik gumus tuproq agrokimyoviy va agrofizikafiy xossalariga ijobiy ta'sir etib ma'dan o'g'itlar kamligini oldini olishda, g'o'zada mevalarni tezroq shakllantiradi (M.Nazarov, L.Axunova, S.Muxammadaliyev, U.Tolipov 2011).

Gektariga 15 va 30 t/ga yarim chiritilgan go'ng va 300 kg/ga NPK solinib g'o'za yetishtirganda bitta g'o'za asosiy poyasining balandligi shonalash fazasining boshlarida 23,2-27,2 sm dan 35-38 smga yaxshilanishi kuzatilgan (G'.Mamadaliyev 2011).

Mineral o'g'itlarning NPK 150:100:75: kg/ga me'yorlarda belgilanib qo'llanilgan fonlarda g'o'zaning bo'yi tajriba yillariga mutunosib ravishda 65,5-82,3 sm ni, barglar soni 30,1-31,7, ko'saklar soni 7,5-8,7 donani va barg sathi esa gektar hisobiga 24793,0-26372,9 sm² ni tashkil etdi. O'g'it me'yorlari NPK 200:140:100: hamda NPK 250:175:125 kg/ga me'yorida qo'llanilgan fonlarda g'o'za 1-fonga nisbatan ko'proq biomassa paydo bo'lganligi kuzatildi. Bunda o'simlikning bo'yi 7,9-10,9; 9,5-13,5 sm, barglar soni 3,9-4,3; 7,1-7,7 dona, ko'saklar soni 2,1-2,6; 2,5-2,6 donaga va barg sathi esa mos ravshda 4036,3-4456,2; 6535,3-61,57,4 m² ga ortiqcha bo'lganligi ma'lum bo'lib, izlanishlarda o'g'it me'yorlarining oshishi yoki kamayishi g'o'zaning o'sib rivojlanishiga ta'sir etishi yana bir bor isbotlandi (F.Teshayev 2011).

II. TADQIQOT SHAROITI, OBYEKTI VA USLUBLARI

2.1 Ilmiy tadqiqodning maqsadi va vazifalari

Har xil chiqindilardan tayyorlangan kompostlarning sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlar agrofizik, agrokimyoviy va mikrobiologik xossalari hamda g'o'zaning o'sishi, rivojlanishi, hosildorligi va maxsulot sifatiga ta'sirini o'rganishdir. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarish kerak bo'ladi.

- turli xil kompost turlarini sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlar agrofizik xossa sig ta'sirini aniqlash.
- go'ng va kompostlarning tuproq kimyoviy va agrokimyoviy xossalari ta'sirini o'rganish.
- organik o'g'itlarning tuproq mikrobiologik xossasiga ta'sirini tadqiqot qilish.
- go'ng va kompostlarning g'o'zaning oziqlanishi, o'sishi, rivojlanishi, hosildorligi va hosil sifatiga ta'sirini o'rganish.
- o'g'itlardagi oziq moddalarning o'zlashtirilish darajasi va ularni tuproqdan olib chiqib ketilishini tadqiqot qilish.
- tovuq go'ngi, il va fosfogipsni kimyoviy tarkibini aniqlash
- tarkibidagi og'ir metallar miqdorini aniqlash
- mineral va organik o'g'itlar hamda kompostlarning sug'oriladigan bo'z tuproqlarda g'o'za o'stirishdagi iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

2.2 Tadqiqot o'tkazish sharoiti va uslublari

Yonma-yon 3 ta chuqur qazilib ular tovuq go'ngi, il va fosfogips aralashmasi bilan tuldirildi. Bu uchala kompost komponentlarining nisbati uchta chuqurda uch xil bo'ldi. Birinchi chuqurdagi aralashma massasi bo'yicha 70% tovuq go'ngi, 20 % il va 10 % fosfogipsdan, ikkinchi chuqurdagi kompost 60% tovuq go'ngi, 30 % il va 10 % fosfogips, uchunchi turdagi 50% tovuq go'ngi, 40 % il va 10 % fosfogipsdan iborat bo'ldi. Chuqur uchbu nisbatlarda komponentlar bilan tuldirilgandan keyin suv bilan namlanib plyonka bilan yopilib ko'mib tashlandi.

2.3 Ilmiy ishning maqsadi: organik va mineral chiqindilardan, ya'ni tovuq go'ngi, Xishrav hovuzi sapropeli va Samarqand kimyo kombinatining chiqindisi fosfogipsdan kompost tayyorlash texnologiyasini yaratish va ishlab chiqarishga joriy qilish hamda ushbu kompostlarni tuproq unumdorligi va g'o'za o'sishi, rivojlanishi, hosildorligi va maxsulot sifatiga ta'sirini aniqlash. Ushbu maqsadga erishish uchun qo'yidagi vazifalarni bajarish kerak:

1. Tovuq go'ngi, il va fosfogipsni kimyoviy tarkibini aniqlash
2. Harxil nisbatda olingan chiqindilardan kompost tayyorlashda uning kimyoviy tarkibini o'zgarishini denamikada o'rganish
3. Chiqindilardan turli xil nisbatda tayyorlangan kompostlarning tayyor holatdagi kimyoviy tarkibini aniqlash.
4. Tayyor kompostlarning tuproq agrokimyoviy va agrofizikaviy xossalariga ta'sirini aniqlash.
5. Kompostlarning g'o'za o'sishi va rivojlanishi, hosildorligi va hosil sifatiga ta'sirini tadqiqot qilish.
6. Kompostlarning g'o'zaning oziqlanishi, kimyoviy tarkibi, oziq moddalarning o'zlashtirishi va olib chiqib ketishiga ta'sirini o'rganish.
7. Kompost tayyorlashning va tayyor kompostlarning paxtachilikdagi iqtisodiy samaradorligini aniqlash

Ishning ilmiy yangiligi: Birinchi marta tovuq go'ngi, il (sapropel) va fosfogipsdan kompost tayyorlash texnologiyasi yaratiladi va ushbu kompost o'zining kelib chiqishi va tarkibiy qismi jihatdan boshqalariga uxshamaydigan yangi kompost bo'ladi. Kompostlarni Pastdarg'om tumani eskidan sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlari agrofizik va agrokimyoviy xossalariga ta'siri bo'yicha utloqo yangi ma'lumotlar olinadi. Tuproq-kompost-g'o'za tizimi o'rtasidagi munosabat va bunda kompostlarning roli aniqlanadi. Shu bilan birga kompostlarning g'o'za o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ta'siri o'rganiladi. Sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlarda kompost tarkibidagi oziq moddalarning g'o'za tomonidan o'zlashtirilish darajasi, olib chiqib ketilishi va balansi o'rganiladi.

Tadqiqot eskidan sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlarda olib boriladi.

Kompostlarning tuproq unumdorligi va g'o'za hosildorligiga ta'sirini o'rganish bo'yicha tajriba variantlari


1. O'g'itsiz variant (nazorat)
2. N 250 P 175 K125 (NPK)
3. 30 t/ga go'ng
4. 30 t/ga kompost
5. NPK +30 t/ga go'ng
6. NPK +30 t/ga kompost

Tajribada azot, ammiakli selitra (NH_4NO_3 -34,6 % N), fosfor superfosfat $\{\text{Ca}(\text{H}_2\text{PO}_4)_2 \cdot \text{H}_2\text{O} + 2\text{CaSO}_4 - 18\% \text{P}_2\text{O}_5\}$ ammofos 12 % N, 46 % P_2O_5 ($\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4$) va kaliy-kaliy xlorid (KCl -60 % K_2O) shaklida qo'llaniladi. Go'ng yarim chirigan holda beriladi, uning tarkibida 0,5 % N, 0,25 % R_2O_5 va 0,6 % K_2O bor. Tajribada g'o'zaning rayonlashtirilgan navi ekiladi. Ekish sxemasi 60x12x1

Tajriba 4 qaytariqda 2 yarusda o'tkaziladi.

Bitta paykalning eni 4,8 metr, uzunligi 50 metr, maydoni 240 m², bitta paykalda 8 ta qator bo'lib, shundan o'rtadagi 4 ta qator ko'zatuv qatori, ikki chetdagi ikkitadan to'rtta qator himoya qatori hisoblanadi.

Variantlar soni 6 ta qaytariqlar soni 4 ta va paykallar soni 24 ta. O'simliklarda fenologik ko'zatish va biometrik o'lchashlar olib borish uchun har bir paykalning 3 joyidan – bosh, o'rta va quyi qismlaridan 33+34+33 sxema bo'yicha 100 model g'o'za o'simligi olinadi. Ular birdan 100 gacha kollerlanib etiketkalanadi. Barcha o'lchash, sanash va kuzatish ishlari usha model o'simliklarda o'tkaziladi.



Barcha o'lchash, sanash va kuzatish ishlari usha model o'simliklarda olib boriladi.

X - model o'simliklar

O'g'itlarni g'o'zada qo'llash muddatlari bo'yicha taqsimlanishi

1-jadval

№	Variantlar nomi	Yillik me'yor, kg/ga				Shudgor bilan kg/ga			Oziqlantirish kg/ga				
									2-3 chin barg chiqarish	Shonalash fazasi		Gullash fazasining boshlanishi	
		N	P ₂ O ₅	K ₂ O	Organik o'g'it t/ga	P ₂ O ₅	K ₂ O	Organik o'g'it t/ga	N	N	K ₂ O	N	P ₂ O ₅
1	O'g'itsiz nazorat	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0
2	N 250 P 175 K 125 (NPK)	250	175	125	0	125	65	0	80	85	65	85	50
3	30 t/ga go'ng	0	0	0	30t/ga go'ng	0	0	30	0	0	0	0	0
4	30 t/ga kompost	0	0	0	30t/ga kompost 1	0	0	30	0	0	0	0	0
5	NPK +30 t/ga go'ng	250	175	125	30t/ga go'ng	125	65	30	80	85	60	85	50
6	NPK +30 t/ga kompost	250	175	125	30t/ga kompost 1	125	65	30	80	85	60	85	50

70 % 50% 100 % 30% 35% 50%

Kompost komponentlari analizi

Tovuq go'ngi analizi:

1. Namlik-105⁰S
2. Yalpi azot-
3. Yalpi fosfor-
4. Yalpi kaliy-
5. Yalpi uglerod
6. Organik modda
7. Og'ir metallar (Su, Zn, Hg, Pb, As, F, Cd)

II moddasi analizi:

1. Namlik-105⁰S
2. Yalpi azot-
3. Yalpi fosfor-
4. Yalpi kaliy-
5. Yalpi uglerod
6. Organik modda
7. Og'ir metallar (Su, Zn, Hg, Pb, As, F, Cd)

Fosfogips analizi

1. Namlik
2. Yalpi P₂O₅
3. Harakatchan P₂O₅
4. Suvda eruvchan P₂O₅

Tayyor bo'layotgan kompost analizi

1. Umumiy uglerod
2. Organik modda
3. Yalpi fosfor-
4. Yalpi kaliy-
5. Yalpi uglerod
6. Og'ir metallar (Su, Zn, Hg, Pb, As, F, Cd)

Tuproq analizi

1. Singdirish sig'imi –
2. Singdirilgan kationlar – Ca^{2+} , Mg^{2+} , K^+ , Na^+ miqdori.
3. Karbonatlar miqdori-
4. Gumus miqdori – Tyurin usulida.
5. Yalpi NPK –bitta namunada Malsev Grisenka usulida.
6. N-NH_4 – FEK da peseler reaktivi yordamida.
7. N-NO_3 FEK da Grandvald-Lyaju usulida.
8. Harakatchan fosfor – FEK da Machigin usulida.
9. Almashuvchan kaliy – alangali fotometrda Machigin – Protasov usulida.
10. Gumusning guruxiy va fraksion tarkibi – Tyurin usulining Ponomareva va Plotnikova modifikasiyasida.
11. Azot fraksiyalari – mineral, oson gidrolizlanadigan, qiyin gidrolizlanadigan va gidrolizlanmaydigan.
12. Muhit reaksiyasi (rN) – potensiometrik usulda.
13. Gumus zahirasi, t/ga – hisoblash usuli bilan.
14. Oziq moddalar zahirasi, kg/ga- hisoblash usulida.

O'simlik analizi

1. Yalpi NPK – bitta namunada Ginzburg, sheglova, Vilfius usulida
2. N-NO_3 miqdori – Grandvald – Lyaju usulida
3. Tola texnologik ko'rsatkichlari
 - tola chiqishi, %
 - tola uzunligi, mm
 - tola pishiqligi, g/k
 - nisbiy uzilish kuchi, g.k/teks

O'simlikdagi biometrik o'lchashlar.

1. G'o'za asosiy poyasining balandligi, sm
2. Bitta o'simlikdagi barg soni, dona
3. Bitta o'simlikdagi shona soni, dona.
4. Bitta o'simlikdagi gullar soni, dona.

5. Bitta o'simlikdagi ko'sak soni, dona
6. Bitta ko'sak massasi, gramm
7. Bitta o'simlikdagi ochilgan ko'saklar soni, dona
8. Bitta ko'sakdagi paxta massasi, gramm.
9. Bitta ko'sakning yirikligi, gramm
10. G'o'zaning yer ustki qismining massasi, gramm.

O'simlikdagi fenologik kuzatishlar.

1. Unib chiqish
2. 2-3 chin barg hosil qilish fazasi.
3. Shonalash.
4. Gullash.
5. Pishish.

Hosildorlik har bir paykalning hisob-kitob qatorlaridan hosilni yoppasiga butunlay terib olish yuli bilan aniqlanadi.

Dala tajribalari O'zPITI va TAITI uslublari bo'yicha olib boriladi. Barcha analizlar umumqabul qilingan standart uslublarda amalga oshiriladi. Olingan ma'lumotlar dispersion analiz yuli bilan matematik statistik tahlil qilinadi (B.A.Dospexov, 1985). Dala tajribasini o'tkazish va laboratoriya analizlari metodikasi «Metodika polevyyx i vegetatsionnyx opytov s xlopchatnikom v uslovnyax orosheniya», «Metody agroximicheskix, agrofizicheskix i mikrobiologicheskix issledovaniy v polevyyx xlopkovyyx rayonax» «Metody agroximicheskix issledovaniy pochv», «Praktikum po agroximi», «Metodika opytogo dela» kabi adabiyotlarda keltirilgan.

2.4. “Omad” g'o'za navi tavsifi

G'o'zaning “Omad” navi G.S.Zaysev nomidagi g'o'za selleksiyasi va urug'chiligi ilmiy tekshirish institutining olimi R.Kim tomonidan yaratilgan.. Nav intensiv tipda bo'lib, tezpishar navlar turkumiga mansub. Ushbu navning o'suv davri 115-118 kun. G'o'zaning bo'yi 80-90 smga boradi. Ko'saklari tanaga yopishgan holda joylashgan. Ko'saklar og'irligi 5-5,5 gr. Gektaridan olinadigan hosildorlik 40 sentnergacha. Kusaklarning ochilish jarayoni tez kechadi. Bitta

ko'sakdagi paxtaning massasi 6,5-7,2 gr 1000 dona chigit massasi 110-130 gr, tolaning shtapel vazni uzunligi 33-34 mm, paxtadan tola chiqishi 36 % tola pishiqligi 4,6-4,7 g/n. Tolaning metrik soni 5800-5900. suvga talabi o'rtacha vilt bilan zararlanishi 5-8 % ni tashkil qiladi mineral o'g'itlarga talabi o'rtacha

2.5. Dala tajribasida g'o'za o'stirish texnologiyasi

G'o'zaning optimal o'sishi, rivojlanishi va yuqori hosildorligida texnologik jarayonlarning o'rni juda yuqori . Bu tadbirlarni nav talabidan, tuproq va iqlim sharoitidan kelib chiqib amalga oshirish kerak. Umuman olganda dala tajribasida paxta yetishtirish texnologiyasi xo'jalikda umum qabul qilingan agrotexnikaga o'xshash. Ular qo'yidagilardan iborat.

Yerga asosiy ishlov berish. Shudgor tuproqni yumshatib uni unumdorligini oshiradi va buning natijasida g'o'zani hosildorligi yuqori bo'ladi. Dala tajribasida shudgor "MAGNUM" traktoriga takilgan PYa-4-35 plugi bilan 30-35 sm chuqurlikda o'tkaziladi. Shudgor qilishdan oldin daladagi g'o'zapoya o'rilib daladan olib chiqib ketiladi. Shudgor shu holatda kuz va qish oylari qoldi va uziga yogingarchilik suvlarini singdirib oladi.

Ekishdan oldingi ishlov. Erta bahorda shudgor bir necha marta "zig-zag" baranasi bilan barana qilinadi. Buning natijasida qish va bahor fasillarida tuplangan nam tuproqda saqlanib qoladi.

Yerni ekishga tayyorlash. Ekishdan bevosita oldin yer chizil qilinadi, undan keyin baralanash o'tkazildi va uning ketidan molalash amalga oshirildi. Molalash kesakchalarni maydalab yerni tekislaydi va zichlashtiradi. Bu esa chigitni uinb chiqishiga yaqin zamin yaratadi.

Ekish. Chigit STX-4b Ekish agregati bilan yekildi. Ekish chuqurligi 5-6 sm. G'o'za navi Okdaryo -6, ekish normasi 40 kg ga.

Qatorlar orasiga ishlov berish. G'o'za qatori orasiga birinchi ishlov berish o'simlikning 2-3 kun barg chiqarish farasida amalga oshirildi. Kultivasiya KRX-4 kultivatori yordamida 6-8 sm chuqurlikda o'tkazildi. Kultivasiya o'simlik yonidan 8-10 sm uzoqlikda o'tkazildi. Shundan keyin har suvdan 10-12; 12-14 va 14-16 sm chuqurlikda kultivasiya o'tkazildi. Har sug'orishdan oldin usha kultivator

yordamida suv qo'yish uchun juya olindi. Birinchi sug'orish uchun juyak chuqurligi 10-12 sm, keyingi sug'orishlar uchun 14-16sm ni tashkil etdi.

Sug'orish. Tajribida g'o'za besh marta sug'oriladi. Boshlangich fazalarda sug'orish normasi kam bo'lib keyingi fazalarning kirishi bilan sug'orish meyori ortdi. Birinchi sug'orish 700-800 m³ meyorida o'tkazildi. Generativ fazalarning kirishi bilan sug'orish meyori ortdi va 900-1000 m³ ni tashkl yetdi. Yillik sug'orish meyori 4100-4400 m³ ga sug'orish juyaklari orqali amalga oshirildi.

O'g'itlash. O'g'itlash dala tajribasi seximasi bo'yicha amaldga oshrildi. Meniral o'g'itlar shudgor bilan, ekindan oldin va o'suv davrida qo'llanildi. Meniral o'g'itlardan ammiakli selitra, ammofos va kaliy xlorid qo'llanildi. O'simliklar kultivator yordamida oziqlantirilgandan keyin sug'orish o'tkazildi. Organik o'g'itlar shudgor ostiga solinadi.

Begona o'tlarga qarshi kurash. Dala tajribasidagi begona o'tlar kulvator yordamida yuqotildi. Qolgan begona o'tlar esa ketmon bilan chopish yuli bilan yuqotildi.

Kasalik va zararkunandalarga karshi kurash choralari. Ildiz chirish, gommoz kasaliklariga qarshi kurashish maqsadida ekishdan oldin chigitga kimyoviy moddalar yordamida ishlov berildi. Bundan tashqari ko'sak qurti, shirincha va o'rgamchaklarga qarshi pestisidlar qo'llanildi.

Chilpish. Oziq moddalarni vegetativ organlar uchun yemas balki generativ organlarga sarflanishi uchun g'o'zani chilpish kerak buladi. Tajribada chilpish ikki marta o'tkazildi. Bunda o'simlik bosh poyasining o'sish nuqtasi chilpib tashlandi. Chilpish g'o'zada 14-15 ta simpodiol shox hosil bo'lganda o'tkazildi.

Defoliyasiya. Dalani paxta yig'im terimiga tayorlash uchun va ko'saklar ochilishini tezlashtirish uchun defolasiya o'tkaziladi. Kimyoviy eritma OVX-14 purkagich yordamida sepildi.

Terim. Dala tajribasida paxta ko'lda terildi. Buning uchun oldin himoya qatorlaridagi va zonalaridagi paxta yig'ishtirilib olinadi. Keyin esa har bir paykalning hg'isob-kitob qatorlaridagi paxta alohida-alohida yig'ishtirildi.

2,6. Tajriba o'tkazilgan joy iqlim sharoiti

Pastdarg'om tumani iqlimi Zarafshon havosi uchun xos bo'lgan qiymatga o'xshaydi. Fasillar va kecha va kunduz o'rtasida kuchli kontenintallik mavjud. Yoz faslining iyul oyida eng issik, qishda-yanvar oyida eng savuq kunlar bo'zlishi kuzatiladi. Yog'ingarchilik asosan kuz, qish va bahor oylarida yuz beradi. O'suv davri davomida yog'ingarchilik deyarli kuzatilmaydi. Bu esa ekinlarni etishtirishda ularni albatta sug'orish kerakligini ko'rsatadi. Umuman iqlim sharoiti qishloq xo'jalik ekinlaridan yuqori hosil olishga imkon beradi. Havo haroratining minumumi yanvarga, maksimumi iyul oyiga tug'ri keladi. Xududning yozi issiq va quruq hamda qishi qisqa, lekin juda sovuqligi bilan tavsiflanadi. Havoning o'rtacha yillik harorati ko'p yillik malumotlar buyicha $14,9\text{ }^{\circ}\text{C}$ ni tashkil etadi. Issik oyning o'rtacha harorati $26,7-27,3\text{ }^{\circ}\text{C}$ eng sovuq oydagi o'rtacha harorati $-1,5+2,6\text{ }^{\circ}\text{C}$ atrofida bo'ladi. Havoning o'rtacha harorati 2009 yilda $14,7\text{ }^{\circ}\text{C}$ 2010 yilda $15,1\text{ }^{\circ}\text{C}$ va 2011yilda $14,9\text{ }^{\circ}\text{C}$ ni tashkil etdi.

Qishloq xo'jalik ekinlari uchun kerak bo'ladigan $12-14\text{ }^{\circ}\text{C}$ harorat aprel oyning boshida kuzatildi. Ekin yetishtirishda vegetatsiya davridagi havoning harorati muhim rol uynaydi. Havoning o'rta cha nisbiy namligi kuz qish va bahor oylarida yuqori bo'ladi. May- sentyabr oylari bu kursatkichning minimuli kuzatiladi. Demak, ekin o'suv davrida havo nisbiy namligi optimaldan past bo'ladi. 2009-2010-2011 yillarda havoning o'rta cha nisbiy namligi tegishlicha 60,4, 60,8, 62,0 % ni tashkil etdi. 2011 yil g'o'zaning o'suv davrida, yani may, iyun, iyul, avgust oylarida havoning nisbiy namligi 2009 va 2010 yillardagiga nisbatan past bo'ldi

1.2-jadval

Tajriba o'tkazilgan joy iqlim sharoiti
Atmosfera harorati, °S

Yillar	Oylar												Urtacha yillik
	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII	
2012	2,1	2,7	9,0	17,3	22,7	26,9	27,4	26,8	21,1	14,7	11,3	5,4	

Atmosfera yogingarchiligi, mm

Yillar	Oylar												Bir yillik yogingarchilik
	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII	
2012	14,9	83,2	56,1	11,5	21,2	4,5	-	0,3	3,3	31,9	55,7	88,9	

Atmosfera havosi namligi, %

Yillar	Oylar												Urtacha yillik
	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII	
2012	77	80	66	52	152	42	37	39	44	64	70	77	

Tuproq harorati, haydov qatlam

Yillar	Oylar												Urtacha yillik
	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII	
2012	3,4	4,1	10,4	17,7	24,9	31,1	32,4	32,0	25,8	17,2	8,1	3,3	

Samarqand meteorologik stansiyasi ma'lumotlari

3.5. Kompostlarning g'o'za hosildorligiga ta'siri

G'o'zaning hosildorligi eng asosiy natijaviy ko'rsatkich hisoblanadi. G'o'za hosildorligiga qarab agrotexnologik tadbirlarning samaradorligiga agronomik jihatdan baho beriladi. G'o'za hosildorligi juda ko'p omillarga bog'liq. Tuproq unumdorligi uning tarkibidagi harakatchan oziq moddalar miqdori, tuproq issiqlik, havo, suv va oziq rejimlari g'o'za hosildorligiga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi omillar hisoblanadi. G'o'zaning o'sishi va rivojlanishi, jumladan o'simlik bo'yi, barg soni va yuzasi, simpodial shoxlar va hosil elementlari soni hosildorlik bilan yuqori korrelyativ bog'liqlikda bo'lishi aniqlandi. Bitta g'o'za o'simligidagi shona, gul, ko'sak soni qancha ko'p bo'lsa uning hosildorligi shuncha yuqori bo'ldi. Ko'pchilik mualliflarning ma'lumotlariga ko'ra, mineral va organik o'g'itlar g'o'za hosildorligini ishonarli oshiradi. Har xil chiqindilardan tayyorlangan kompostlar g'o'za hosildorligini oshirish bo'yicha ham bir qancha ma'lumotlar bor (Sh.T.Xoliqulov, 1996; S.Pardayev, ... ;) bizning tadqiqotlarimizda ham tovuq go'ngi, il va fosfogipsdan tayyorlangan kompostlarni Past-Darg'om tumaning tipik bo'z tuproqlar sharoitida g'o'za hosildorligiga ishonarli ta'sir ko'rsatdi. Ushbu kompostlar yarim chirigan qoramol go'ngi bilan g'o'za hosildorligiga ta'siri bo'yicha bir xil natijaga ega bo'ldi. Nazoratda harakatchan oziq moddalar miqdori kam bo'lganligi va g'o'za o'sishi hamda rivojlanishini sust borganligi sababli g'o'za hosildorligi ancha kam bo'ldi. Demak, tipik bo'z tuproqda tabiiy unumdorlik hisobiga g'o'zadan yuqori hosil olish imkoniyati yo'q. Organik o'g'itlarni, jumladan yarim chirigan chirigan go'ngi va tovuq go'ngi, il va fosfogipsdan tayyorlangan kompostlarni 30 t/ga me'yorda qo'llash g'o'za hosildorligini 12,61-42,78 s/ga oshirdi. Organik o'g'itlarni qo'llaganda g'o'za hosildorligini ortishi nafaqat tuproqdagi harakatcha oziq moddalar miqdorini ortishi bilan, balki o'simlik o'sishining sharoitlarini yaxshilanishi bilan ham bog'liq. Masalan, nazoratda g'o'za hosildorligi 12,61 s/ga yoki 100 % bo'lgan bo'lsa, N_{250} P_{175} K_{125} mineral o'g'it variantida 36,18 s/ga yoki 236,02 % 30 t/ga yarim chirigan qoramol go'ngi variantida 22,04 s/ga yoki 175,35 %, 30 t/ga

kompost qo'llanilgan variantda 27,34 s/ga yoki 217,24 %, ni tashkil etdi (20-jadval).

Mineral o'g'itlar qo'llanilganda g'o'za hosildorligi keskin oshirdi. Mineral o'g'itlar organik o'g'itlarga nisbatan g'o'za hosildorligiga kuchliroq ta'sir ko'rsatdi. Mineral va organik o'g'itlar birgalikda qo'llanilganda g'o'zadan eng yuqori hosil olindi. Tovuq go'ngi, il va fosfogipsdan tayyorlangan kompostlar yarim chirigan go'ngga nisbatan biroz kuchliroq ta'sir ko'rsatdi. Organik o'g'itlar mineral o'g'itlar fonida qo'llanilganda g'o'za hosildorligi eng yuqori darajada ekanligi tajribada aniqlandi. Bu g'o'zaning butun vegetasiya davrida zarur oziq moddalar bilan yetarlicha ta'minlash imkonini berdi, mineral o'g'itlar organik o'g'itlarni minerallashtirishini tezlashtirish uchun ham xizmat qildi. Organik o'g'itlar jumladan kompostlar o'zlari tarkibidagi harakatchan oziq moddalarni g'o'za vegetasion davrining oxirigacha saqlashi, vegetasiyaning boshida esa mineral o'g'itlarning ta'siri kuchliroq bo'lganligi aniqlandi. Masalan, g'o'za hosildorligi mineral o'g'itlar fonida yarim chirigan qoramol go'ngi qo'llanilgan variantda o'rtacha 39,04 s/ga yoki 309,98 % bo'lgan bo'lsa, NRK +30 t/ga kompost qo'llanilgan variantda g'o'za hosildorligi 42,78 s/ga yoki 348,78 % bo'lishi o'tkazilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra aniqlandi.

MINERAL VA ORGANIK O'G'ITLARNING G'O'ZA HOSILDORLIGIGA TA'SIRI

T/r	Variantlar	Hosildorlik		Ikki yillik o'rtacha hosil-dorlik	Nazoratga nisbatan olingan qo'shimcha hosil					
					2010 yil		2011 yil		Ikki yillik o'rtacha	
		2010 yil	2011 yil		s/ga	%	s/ga	%	s/ga	%
1	O'g'itsiz (nazorat)	12,95	12,27	12,61	-	100	-	100	-	100
2	N₂₅₀ P₁₇₅ K₁₂₅ (NPK)	35,80	36,57	36,18	22,85	276,45	24,30	195,59	23,57	236,02
3	30 t/ga go'ng	21,01	23,07	22,04	8,12	162,70	10,80	188,01	9,46	175,35
4	30 t/ga kompost	26,22	28,47	27,34	13,27	202,47	16,20	232,02	14,73	217,24
5	NPK +30 t/ga go'ng	38,47	39,62	39,04	25,52	297,06	27,35	322,90	26,43	309,98
6	NPK +30 t/ga kompost	41,67	43,90	42,78	28,72	321,78	31,63	357,78	30,17	348,78
	EKIF 2,46 s/ga	Sx % 2,72 %								

Demak, tovuq go'ngi, il va fosfogipsdan tayyorlangan kompostlarni o'zi alohida qo'llanilganda ham, mineral o'g'itlar fonida qo'llanilganda ham g'o'za hosildorligini ishonarli oshiradi

Demak, organik o'g'it foni oshirilib borishi, ma'lum bir darajadan keyin mineral o'g'itlarning g'o'za hosildorligiga ta'sirini susaytira boshlaydi. Mineral o'g'itlardagi oziq moddalarning bir qismini (azot bo'yicha 20 % ini) organik o'g'itlar hisobiga tuldirilishi g'o'za hosildorligini sezilarli oshishiga olib kelmadi. Lekin bunda hosildorlik sezilarli ortmagan bo'lsada, tuproq unumdorligi, mikrobiologik faolligi ortdi, tuproq xossalari va rejimlari yaxshilandi. Bu esa muntazam ravishda oziq moddalarning bir qismini organik o'g'it hisobiga berilsa kelajakda tuproq unumdorligi va mikrobiologik faolligini keskin ortishini bildiradi. Bunday sharoitda ma'lum bir vaqtdan sung g'o'za hosildorligi sezilarli ortishi bmr qator adabiyotlarda keltirib o'tilgan. Shunday qilib mineral va organik o'g'itlarni alohida yoki birgalikda qo'llash g'o'za hosildorligini o'g'itsiz nazoratga nisbatan sezilarli oshiradi. Bunda mineral o'g'itlarni organik o'g'itlar fonida qo'llash g'o'zadan maksimal darajada hosil olishga imkon beradi. G'o'za hosildorligi tuproqning agrofizik xossalari, mikrobiologik va agrokimyoviy faolligiga korrelyativ bog'liqlikka ega. Demak, g'o'zadan yuqori va sifatli hosil olish uchun o'tloq tuproqlar sharoitida organik o'g'it bo'lmaganda mineral o'g'itlarni $N_{250} P_{175} K_{125}$ me'yorlarda, organik o'g'it bo'lganda mineral o'g'it me'yori biroz pasaytirib 30 t/ga go'ng fonida $N_{250} P_{175} K_{125}$ me'yorda qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday sharoitda tuproqning agrofizikaviy, mikrobiologik va agrokimyoviy faolligi muqobil darajada bo'ladi.

3.6. Kompostlarning g'o'za yetishtirishdagi iqtisodiy samaradorligiga ta'siri

Tovuq go'ngi, il va fosfogipsdan tayyorlangan kompostlarni g'o'za o'stirishdagi iqtisodiy samaradorligi bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir agrotexnologik tadbir nafaqat agronomik jihatdan, balkim iqtisodiy jihatdan baholanish kerak. Agar o'g'itlarni qo'llashga ketgan harakatlar ular hisobiga olinadigan qo'shimcha hosil hisobiga qoplanishi kerak. Chunki bozor iqtisodiyoti davrida har bir texnologik tadbir iqtisodiy jihatdan samarali bo'lsagina ularni

qo'llash imkoniyati tug'iladi. Har bir texnologiya agronomik jihatdan qancha samarali bo'lmasin, agar u iqtisodiy jihatdan zarar keltirsa, ushbu texnologiyani ishlab chiqarishga joriy qilib bo'lmaydi. Shuning uchun har bir tadbirni iqtisodiy jihatdan o'rganish dolzarb masala hisoblanadi. Agrotexnologik tadbirlarning iqtisodiy samaradorligi uning hisoboga olinadigan qo'shimcha hosil, uning sifati va sotuvdagi narxi, hamda uni qo'llash bilan bog'liq harakatlarga bog'liq bo'ladi. Qo'shimcha hosil miqdori qancha katta bo'lsa, agrotexnologik tadbirning samaradorligi shuncha yuqori bo'ladi. Buning uchun ushbu tadbirlar tuproq unumdorligi va g'o'za oziqlanishi, o'sishi va rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatishi kerak. Qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtirishda mineral va organik o'g'itlarni, jumladan tovuq go'ngi, il va fosfogipsdan tayyorlangan kompostni iqtisodiy samaradorligini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlar bu yalpi daromad, ularni qo'llash bilan bog'liq. Kam harajat, shartli sof daromad, mahsulot tan narxi, sotuvdagi narxi va rentabellik darajasi hisoblanadi. Yalpi daromadning yuqori bo'lishi uchun hosildorlik ko'p, mahsulot sifati yuqori bo'lishi kerak. Sof daromadning yuqori bo'lishi uchun mineral va organik o'g'itlardan olinadigan qo'shimcha hosil yuqori bo'lishi va bundan tashqari o'g'itlarni qo'llash bilan bog'liq bo'lgan harajatlar yalpi daromadga nisbatan ancha kam bo'lishi kerak. Mahsulot tan narxi kichik bo'lishi uchun qilingan harajatlar hisobiga imkon qadar ko'p miqdorda qo'shimcha hosil olinishi kerak. Sof daromadning ulushi jami harajatlardan qancha yuqori bo'lsa, rentabellik darajasi shuncha yuqori bo'ladi. Ushbu ko'rsatkichlarga erishish uchun qo'llaniladigan texnologik tadbir jumladan tovuq go'ngi, il va fosfogipsdan tayyorlangan kompostlar yuqori darajada agronomik samara berishi kerak. Buning uchun ushbu tadbirga ehtiyoj katta bo'lishi va u minimumda turgan omilni muqobillashtirishi kerak. Shu bilan birga o'g'itlarni sotib olish va tayyorlashda kam harajat ketishi kerak.

